

BADIIY ADABIYOTDA UCHRAYDIGAN ASARLARDAGI FARZANDSIZLIK MOTIVI

O'rolbek Jo'rayevich SAIDOV,

*Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi Umumiy fanlar kafedrasida
o'qituvchisi*

Nilufar QAHHOROVA,

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asarlarda uch raydigigan farzandsizlik muammosi badiiy asardagi obrazlarning xarakterlanishi qay darajada mahorat bilan yaratilganligi tahlilga tortiladi. O'zbek ijodkorlari bu mavzuni milliy qadriyatlar va nasl davom etish tushunchasi bilan bog'lab tasvirlaydi.

Kalit so'zlar: farzandsizlik, yolg'izlik, oydinga yurgan odamlar, jahon adabiyoti.

Kirish qism: Tog'ay Murod Oydinga yurgan odamlar. Ushbu asar o'zbek adabiyotida farzandsizlik fojiasini eng ta'sirli yoritgan asarlardan biridir. Unda farzand ilinjida yashayotgan er-xotinning ichki kechinmalari, jamiyatdagi qarashlari, ruhiyati, insoniy qadr-qimmatining badiiy ifodasidir. Asarning markazida Qoplon va Oymomo taqdiri turadi. Ularning farzandsizligi shunchaki oilaviy muammo emas, balki insoniy fojia sifatida tasvirlangan. Er-xotinning yillar davomida bir-birini ayblamay, dardini ichiga yutib yashashi o'zbekona sadoqatning eng yuksak namunasidir. Ular har qanday sharoitda ham „shoyad“ degan umid bilan yashaydilar. Tog'ay Murod Qoplon va Oymomo munosabatlari orqali haqiqiy sevgini ko'rsatib bergan.

Jahon adabiyotida Injil va qadimgi rivoyatlarda, masalan Ibrohim alayhissalom va Sora onamiz qissasida bu mavzu keng uchraydi. Shuningdek, Virjiniya Vulf kabi adiblar ijodida befarzandlik ayol taqdirining murakkab qirrasini sifatida tahlil qilingan. Ushbu motiv asarlarda qahramonning safarga chiqishiga, g'ayritabiiy holatlarga duch kelishiga yoki chuqur ma'anaviy evrilishiga sabab bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida farzandsizlik motivi inson ruhiyatining eng chuqur iztiroblarini, yolg'izlik va hayot mazmunini anglash harakatlarini yoritish uchun xizmat qiladi. Mumtoz asarlardan farqli o'laroq zamonaviy nasrda bu mavzu ko'pincha ijtimoiy psixologik, drama va falsafiy mushohada orqali talqin etiladi. Bu asarlarda farzandsizlik shunchaki fojia emas, balki qahramonning o'z hayotini qayta ko'rib chiqishga ma'anaviy saodatni boshqa manbalardan qidirishga undovchi katalizator vazifasini o'taydi.

Xulosa: Bu motiv inson hayotining mazmuni va o‘limidan keyingi hayot haqidagi qadimiy qo‘rquv va umidlarni o‘z ichiga oladi. Adabiyotda farzandsizlik motivi -bu faqatgina beshikning bo‘shligi emas, balki qalbning bo‘sh qolmasligi uchun kurashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog‘ay Murod Oydinda yurgan odamlar: qissa-Toshkent „Ziyo nashr“ 2019-yil 160bet
2. Dilmurod Quronov „Qalblarni larzaga solgan xirgoyi“ -Ziyouz.com kutubxonasi.
3. Mengliyev, B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: „Tafakkur bo‘stoni“ 2018.
4. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. -Toshkent: Nurafshon kitob-Ta‘minot 2022.